
Vatan himoyachilari kuni tumanimizda ham munosib nishonlandi

□ Bugun tuman hokimligi, ma'naviyat va ma'rifat tuman bo'limi va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan tuman madaniyat markazida tadbir bo'lib o'tdi.

* Tadbir ishtirokchilarini tuman hokimi S. Soliev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi va Vatan himoyachilari bayrami munosabati bilan chin dildan samimiy muborakbod etdi.

???? - Avvalo, barchangizni O'zbekistonimiz hayotidagi qutlug' sana - Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganligining 31 yilligi bayrami bilan samimiy tabriklashga ruxsat bergaysizlar! Ayni vaqtda bu bayram tadbirlari har bir hududda, har bir harbiy qismlarda alohida nishonlanmoqda. Dunyoda sharaflil kasblar ko'p, ular orasida eng sharaflisi o'z ona Vatani va xalqining tinchligi uchun xizmat qilishdir. Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, shu yo'lda erishgan eng katta yutug'imizdir. Bu haqiqatni yurtimizdagi barcha ota-onalar, butun xalqimiz g'urur bilan, minnatdorchilik bilan e'tirof etmoqda, - dedi tuman hokimi tabrik nutqida.

???? Shundan so'ng o'z sohasida sadoqat, matonat, fidoyilik ko'rsatgan faol xodimlarga tuman hokimligining qimmatbaho sovg'alari, faxriy yorliqlari tantanali ravishda topshirildi. Ana shunday mukofotlarga tantanali tadbirga taklif etilgan ichki ishlar, mudofaa ishlari, chegara qo'shinlari faollari va boshqa vakillar ega bo'lishdi.

🎵 Tadbir davomida bayram ishtirokchilariga tuman madaniyat markazi san'atkorlari tomonidan tayyorlangan musiqiy dastur namoyish etildi. Ushbu bayram dasturi barchaga xush kayfiyat bag'ishladi.

2023-01-13 14:06:14